

JEK LONDONNING "LOVE OF LIFE (HAYOTGA MUHABBAT)"

HIKOYASI TARJIMASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Aripova Saodat Taxirovna*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,*

*Filologiya kafedrsi o'qituvchisi*

*aripova\_saodat8822@mail.ru*

*+998977281111*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy tarjima jarayonida lingvistik xususiyatlarning ahamiyati, tarjimada milliy rang, madaniy tafovutlar va ularning tarjima sifati va tushunilishiga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif J. Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasi asosida lingvistik va madaniy o'ziga xosliklarning tarjimada qanday aks etishi va tarjimon tomonidan qanday yondashuvlar qo'llanilishi lozimligi haqida misollar keltiradi. Tarjimonning kommunikativ ta'sirni saqlab qolishdagi roli, madaniy neytrallikni saqlashi va lingvomadaniy farqlarga asoslangan yondashuvlarning zarurligi asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** tarjima, lingvistik xususiyatlar, madaniyatlararo tafovut, kommunikativ ta'sir, umumlashtirish, leksik birliklar.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается значение лингвистических особенностей в процессе художественного перевода, а также влияние национального колорита и культурных различий на качество и понимание перевода. На основе рассказа Джека Лондона «Любовь к жизни» анализируются подходы к передаче культурных и языковых элементов в переводе. Особое внимание уделяется роли переводчика в сохранении коммуникативного эффекта, необходимости культурной нейтральности и использования стратегий адаптации.*

***Ключевые слова:** перевод, лингвистические особенности, межкультурные различия, коммуникативный эффект, генерализация, лексические единицы.*

***Abstract.** This article explores the role of linguistic features in literary translation, focusing on the influence of national color and cultural differences on translation quality and comprehension. Using Jack London's short story "Love of Life" as a case study, the paper illustrates how linguistic and cultural elements are handled in translation. It emphasizes the importance of the translator's role in preserving communicative effect, maintaining cultural neutrality, and applying strategies such as generalization and contextual adaptation.*

***Keywords:** translation, linguistic features, cross-cultural differences, communicative effect, generalization, lexical units.*

## **"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"** **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

Tarjimaning lingvistik xususiyatlarini aniqlashda tarjimada inson hayotining turli jihatlari, shu jumladan milliy rang masalasi kuzatiladi, bu odatda odamlarning kiyimi, xulq-atvori va tilida uchraydigan ba'zi iboralar bilan xususiyatlanadi.

J. Lakoff til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ochish uchun metaforalarni tahlil qilish vositasini taklif qiladi [1]. Chunonchi, nima uchun tarjimaning lingvistik xususiyatlari nazariyasi chet tilidagi ba'zi iboralarni o'zlashtirganda tushunishni osonlashtirsa, boshqalarini tushunish qiyinligini tushuntiradi. Ushbu usul taqqoslangan tillar orasidagi kognitiv farqlarni aniqlashga yordam beradi. Bunday farqlar tasodifiy emas va dunyodagi hodisani u yoki bu shaxs ma'lum bir tarzda tushunishini ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotni matn shaklida tarjima qilishda gap nafaqat tilni to'g'ridan-to'g'ri hisoblangan tizimlar shaklida o'rganish, balki matnning tabiati, uning tuzilishi, mazmuni va fikrni ochishdagi o'rni kabi umumiy tilshunoslikdagi nazariy baholar asosida bir qator masalalarni hal qilish dolzarb muammolardan biridir.

Hikoya tarjimasida leksik-grammatik va leksik-uslubiy vositalarni tahlil qilish ularni lingvistik nuqtai nazardan o'rganishda qo'l keladi. Matnlar bir tilning sintaktik, leksik-grammatik va leksik-usubiy vositalarini boshqa tilga tarjima qiladigan turli yo'llar bilan yaratilishi mumkin. Buning qanday shakllantirillishi, albatta, tarjimonning mahoratiga bog'liq.

Hikoya tarjimasida lingvistik xususiyatlarning leksik birliklarini qayta taqdim etish turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ushbu shakllarni uchta munosabatlar orqali ko'rish mumkin:

- 1) muqobil (butunlay tenglik);
- 2) qisman tenglik;
- 3) tengsizlik (istisnolar).

Insonlar hayotidagi zarur narsalar va hodisalarni madaniyat vositasi sifatida baholash mumkin. Masalan, bir tomondan quyosh yoki oyni madaniyatga kiritish imkonsiz ko'rinadi. Biroq, bu tushunchalar barcha xalqlarning madaniyatlarida mavjudligi ma'lum. Biroq, ba'zi sovuq ob-havo hukm suradigan joyda yashovchi yevropaliklari (slavyanlar va nemislar) quyoshni iliqlik, g'ayrat va xayrixohlik belgisi sifatida ijobiy baholaydilar. Boshqa tomondan, arab madaniyatida salbiy qiymat quyoshga tegishli bo'lib, u yozda hayotni qiyinlashtiradigan jazirama haroratga tenglashtiriladi. Shuning uchun quyoshni nafaqat tabiiy hodisa, balki madaniy mahsulot sifatida ham tushunish mumkin.

Hikoya tarjimonlari duch keladigan eng dolzarb muammo bu asl matnning ohangdorligi va musiqiylikini takrorlash va asl matnning ta'sirini tarjimaga o'tkazishdir. Buni uddalash uchun tarjimonlar grammatik va leksik birliklarni, tilning stilistik xususiyatlarini va lingvistik xususiyatlarini to'liq o'rganishlari kerak.

Q. Musaev lingvomadaniy xususiyatlar to'g'risida shunday deydi: "Tarjimoni xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlar ma'no va shakllaridan ko'ra ko'proq ularning muayyan kontekslarda o'tab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg'ul qilmog'i darkor. Bu tarjimoni asl nusxadagi xos so'zlarni beasos tarjima matniga ko'chirish yoki, mumkin bo'lmagan taqdirda ham, ularni tarjima tilidagi xos so'zlar bilan almashtirib qo'yish xavfidan saqlab qoladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg'unlik nuqtaiy nazaridan yondashish asliytdagi bunday ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, hislat, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo'lishiga erishish imkoniyatini beradi." [2]

Hikoya mazmuni muallif tomonidan maxsus tanlangan tilning lingvistik xususiyatlarini, ya'ni leksik va sintaktik, shuningdek stilistik birliklarni shakllantiradi. Asl matn ma'lumotni kommunikativ maqsadiga muvofiq yanada ta'sirchan va samarali qiladigan lingvistik vositalardan tanlanadi. Natijada, bunday maqsadlar uchun yaratilgan matnlar ma'lum bir lingvistik potensialga ega va axborot qabul qiluvchiga (retseptoriga) kommunikativ ta'sir ko'rsatadi.

Musiqqa turli odamlarga turlicha ta'sir qilgani kabi, qabul qiluvchilarning olgan bir xil ma'lumotlariga munosabati ham har xil bo'lishi mumkin. Axborot oluvchining axborotga nisbatan yuzaga keladigan lingvistik munosabati nafaqat hikoya matniga, balki qabul qiluvchining shaxsiyati, ma'lumoti, hayotiy tajribasi, ruhiy holati va boshqa shunga o'xshash xususiyatlariga ham bog'liq. Matnlarning lingvistik va kommunikativ ta'sirini ularning turli darajadagi odamlarga turli xil ta'siri bilan ham aniqlash mumkin.

Tarjima jarayonining birinchi bosqichida hikoya tarjimonining o'zi ma'lumotni oluvchi sifatida matnda iloji boricha ko'proq ma'lumotni tushunishga harakat qiladi. Buning uchun u asl tilda mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlardan xabardor bo'lishi kerak. Shuning uchun muvaffaqiyatli tarjima asl matn tegishli bo'lgan odamlarning tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odatlarini, madaniy me'rosi va turmush tarzi bilan bog'liq ba'zi so'zlarni bilishni va ularni chuqur o'rganishni talab qiladi.

Tarjimon, tillararo aloqada vositachi sifatida, turli hodisalarga bo'lgan munosabatida betaraf qolishi va bu munosabatlar voqea yoki hodisalarning birinchi marta asliytda ifodalanganidek aniqligiga zarar yetkazmasligini ta'minlashi kerak. Shu nuqtai nazardan, tarjimon lingvomadaniy neytral pozitsiyani egallashi kerak.

Hikoya tarjimasi jarayonining ikkinchi bosqichida tarjimon asl matnda ifodalangan voqealarni o'quvchi tushuna oladigan lingvistik vositalar yordamida takrorlashga harakat qiladi. Madaniyatlararo farqlar tarjima tili aniq va tushunarli bo'lishiga kafolat bera olmaydigan hollarda, tarjimon bunday to'siqlardan qochish choralarini izlaydi va matnga tegishli o'zgartirishlar kiritishi kerak bo'ladi.

Tarjimani o‘qiyotgan odamning bilim va tajribasining yetishmasligi tarjimanni ma’lum ma’lumotlarni aniq ifoda etishga, ya’ni matn mazmunini qo‘shish yoki izohlashga majbur qiladi. Bu holat, ayniqsa, hikoyada ismlar, geografik atamalarning tarjimalarida va turli mintaqalardagi madaniy va milliy belgilarga ega so‘zlarning tarjimalarida keng tarqalgan.

Tarjima qilingan matnni ma’lumot oluvchi tushunishi mumkin bo‘lgan tilda qayta tiklash zarurati tarjimondan asl nusxada tushunish qiyin bo‘lgan elementlarni asl nusxada taqdim etilgan ma’noda yetkazish uchun qo‘shimcha talqinlarni yaratishni talab qiladi. Bunday elementlarni asl tilni o‘quvchi osongina tushunishi mumkin, ammo tarjima qilingan til o‘quvchiga hech qanday ma’no bermasligi mumkin. Masalan, mashhur amerikalik yozuvchi Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasidan olingan quyidagi misolda Angliyada Bosh Vazir qarorgohi manzilini ifodalagan (No. 10) faqat tarjimoning aralashuvi bilangina o‘quvchilarga aniq bo‘lishi mumkinligi bor gap. O‘quvchi tarjimoning salohiyati evaziga bu yerda bu raqam nimani anglatishini bilish uchun ortiqcha bosh qotirib o‘tirmaydi. Vaholanki, bu manzil ingliz o‘quvchilarining barchasi uchun birdek tushunarli.

<p><i>“The Prime-Minister spoke a few words from a window in No. 10.” (J. London “Love of life”)</i></p>	<p><i>Bosh vazir o‘z qarorgohi balkonidan qisqa nutq so‘zladi. (F. Abdullaev “Hikoyalar” T.: 1955. –B. 57)</i></p>
--	--

Tarjimashunoslikda “generalizatsiya” (umumiylashtirish) deb nomlangan yana bir strategiya borki, hikoyalar tarjimasida juda qo‘l keladi. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi asliyat va tarjimasidan olingan ushbu o‘rinlar fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi:

<p><i>“Also, he would find flour, – not much, – a piece of bacon, and some beans” (J. London “Love of life” 1905. r. 63)</i></p>	<p><i>Bundan tashqari o‘sha yerda oz bo‘lsa ham un, bir parcha go‘sh, loviya ham bor. (F. Abdullaev “Hikoyalar” T.: 1955. –B. 59)</i></p>
<p><i>“a «swept» yard that was never swept where Johnson grass and rabbit-tobacco grew in abundance.” (J. London “Love of life” 1905. r. 65)</i></p>	<p><i>“top-toza” hovli hech qachon supirilmas va butunlay o‘t-o‘lanlar bilan qoplanib yotardi”. (F. Abdullaev “Hikoyalar” T.: 1955. –B. 60)</i></p>

Yuqoridagi misollardagi cho‘chqa go‘shidan qilingan taom va Amerikaning jazirama hududlarida o‘sovchi o‘t nomlari ifodalaydigan “bacon” hamda “Johnson grass” va “rabbit tobacco” o‘zbek kitobxonlariga umuman tanish bo‘lmaganligi sababli tarjimon F.Abdullayev bu yerda ularni umumiylashtirib shunchaki go‘sh yoki o‘t-o‘lanlar tarzida tushuntirgan. Ikkinchi misoldagi “Johnson grass” va “rabbit

**"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

*tobacco*” lar o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda qanchalik g‘alati va kulguli chiqishiga ham e‘tibor berish o‘rinli: “*Jonson o‘ti*”, “*quyon tamaki*”.

Tarjima orqali o‘zbek o‘quvchilariga ma’lumot yetkazishga harakat qilayotgan tarjimon o‘z matnini bilim jihatdan ma’lum yuqori yoki past saviyadagi o‘quvchiga yo‘naltiradi. Bu esa asliyatni qisqartirish va moslashtirishga olib kelishi bor gap. Buni, ayniqsa, yosh kitobxonlar uchun kitoblarni chet tiliga tarjima qilishda ko‘rish mumkin.

Tarjimada lingvistik imkoniyatlarning qay darajada aniq aks ettirilganligini badiiy asarning o‘quvchiga ta’sirida ko‘rinadi. Shekspir, J. London va Ch. Dikens kabi yzouvchilar asarlarini ona tilida o‘qiganlar asl mualliflarning badiiy iste’dodlarini his qilishlari va nima uchun ular o‘z vatanlarida buyuk yozuvchi sifatida tan olinishini tushunishlari mumkin. Agar tarjimonlar ham o‘z vazifalarini to‘la-to‘kis uddalay olsalar, ingliz tilidan tarjimaning kommunikativ ta’siri to‘liq mavjud deb hisoblanadi. Albatta, asliyatdagi kitoblarni o‘qishdagi kommunikativ ta’sirni ushbu asar tarjimasining o‘zbek kitobxonlariga ta’siri bilan taqqoslash mezonini yo‘q. Vaholanki, tarjimani o‘qigan o‘quvchilarning reaksiyasi asl nusxani o‘qigan o‘quvchilarga qaraganda kamroq yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. G. Lakoff, M. Johnson. *Metaphors We Live By*. 1980.
2. Musayev Q. *Tarjima nazariyasi asoslari: darslik*. – T.: Fan, 2005. – .352 b.
3. J. London “*Love of life*”
4. F. Abdullaev “*Hikoyalar*” T.: 1955.